

## BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT

*Rajabov Oybek Iskandarovich*

*Buxoro davlat universiteti*

XVIII asr ikkinchi yarmida Ashtarkoniylar davlatining tanazzuli hamda Buxoro amirligining tashkil topishi davridagi ijtimoiy, siyosiy shart-sharoitlar, amirlikning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, markaziy va mahalliy boshqaruvning huquqiy asoslari, shuningdek, davlatda boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan ichki va tashqi siyosiy, diplomatik munosabatlarning o‘ziga xos xususiyati, sud tizimi, sudlov va qozilik faoliyatları shuningdek, Buxoro amirligi huquqiy tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni tahlil qilish, amirlikda davlatchilik boshqaruv tizimining shakllanishi hamda rivojlanishini muayyan bosqichlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘lib, bunda mang‘itlar sulolasining dastlabki vakillari tomonidan amalga oshirilgan islohotlar o‘z navbatida, mamlakatni birlashtirish, aholi turmush tarzini birmuncha o‘zgartirishga muayyan darajada ijobiy ahamiyat kasb etganligini ko‘rish mumkin.

XIX asrda safar qilgan Ye.K.Meyendorf Buxoroning islom olamida tutgan o‘rnini quyidagicha ta’riflaydi: “O‘zining ko‘plab maktablari, olimlari hamda muqaddas qadamjolari sababli musulmonlarning ziyoratgohiga aylangan. Ehtimol shuning uchun u “sharif” nomiga sazovor bo‘lgandir”. Rus sayyohi N.Xanlykov o‘z esdaliklarida Buxoroni yirik ilm-fan va ma’rifat, diniy bilimlar markazi sifatida ta’riflab: “Buxoro ilm tarqatuvchi markaz hisoblangan va hisoblanadi”, deydi. J.Kunits ham Buxoroni “arab-eron madaniyatining qal’asi”, Markaziy Osiyoning yuz yillik tarixidagi «Islomning yuragi», 250 masjid va madrasalar markazi deya atagan. Muhammad Ali ibn Muhammad Sayid Baljuvoniyning «Ta’rixi Nofeiy» («Foydali tarix») nomli asari Buxoro amirligining XIX-XX asrning boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-siyosiy tarixini yoritib beruvchi muhim va qimmatli manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur tarixiy davrda Buxoro amirligi Turkiston hamda Movarounnahrdagi davlatlar orasida ilmu madaniyat, shariat fanlarining taraqqiy etganligi, tafsir, hadis, fiqx, kalom, usul, sarfu nahv ilmlaridan iborat bo‘lgan shariat ilmlari ushbu muazzam diyorda rivojlanganligi, hikmat ilmini

madrasalarda zarurat yuzasidan o‘qitilgan. Bu ilmi hikmat, mantiq qismati ilohlardan iborat bo‘lgan, biroq riyoziy va siyosiy ilmlar azaldan ham bu shaharda keng tarqalmagan. Bu davlatda taxminan uch-to‘rt ming talabalar o‘qiydilar. Dars beruvchi mudarrislarning soni taxminan 800 nafar bo‘lgan.

Ahmad Donish mudarrislik kasbining mashaqqatlari haqida: “Kunduz kuni muallim o‘z o‘quvchilari bilan mashg‘ulotda band bo‘ladi, kechqurun esa ertangi kungi mashg‘ulotlarga tayyorlanadi, xullas u umr bo‘yi o‘qiydi va o‘z kasbi bilan muttasil, tanaffussiz shug‘ullanadi”, degan fikrlarni bayon etadi. Tarixda ayrim hukmdorlarning o‘zi ham madrasada mudarrislik qilgani haqida ma’lumotlar uchraydi. Amir Shohmurod va Amir Haydar Buxoroda mudarrislik qilgan. Amir Haydar ko‘plab shogirdlarni tarbiyalagan. U “Sharhi Kofiya”, “Sharhi Mishkot”, “Shamoili nabaviy” va “Tafsiri Qozi Bayzoviy”dan dars bergan. Sadri Ziyoning ma’lumotiga ko‘ra, Amir Haydar qiroat ilmi va xattotlik san’atini ham puxta egallagan. Manbalarda qayd etilishicha, Amir Haydarning madrasada ta’lim oluvechi 400-500 nafar talaba shogirdlari bo‘lgan. Amir Haydar talabalar uchun Istanbul (Usmonli turk sultonligi)dan kitoblar keltirishga shaxsan o‘zi bosh-qosh bo‘lgan. Ya’ni, 1815 yilda devonbegi Eshmuhammad va Mirzo Muhammad Yusuf qo‘rchiposhini maktub bilan Istanbulga yuborib, sulton Mahmud II dan shariatga doir kitoblarni so‘ratganda, Mahmud II o‘z elchisi Hasan Chalabiy orqali Buxoroga 32 jildli kitob yuborgan. O‘quv jarayonini tashkil etish odatda, mudarrislarning zimmasida bo‘lib, ular quyidagi uch toifaga bo‘lingan:

*Birinchi toifa - a’lo darajali mudarrislar. Bunga qozi ul-quzzot, raisi kalon, shayx ulislom, oxund, a’lam, mufti, askar kirgan.*

*Ikkinci toifa - o‘rta darajali mudarrislar. Bu toifadagi mudarrislarni kiygan kiyimlariga qarab “banoraspo‘sh” deb atashgan. Ayni shu toifadan chiqqan ilmli mudarrislar muftilik lavozimigacha erishgan. Mazkur toifadagi mudarrislar taxminan ikki yuz nafar bo‘lib, ularni yana “o‘rta mudarrislar” deb ham atalgan.*

Uchinchi toifa - quyi darajadagi mudarrislar. Bu toifadagilarni mudarrislar, imom mudarrislar, ba'zan beqasabapo'sh deb atalgan. Imom mudarrislar soni uch yuzdan ortiqroq bo'lgan.

Sadriddin Ayniy esa Buxoro mudarrislarini uch toifaga ajratgan:

1. O'zi kursni tugatmasa ham ammo, ta'lim berish qobiliyatiga ega shaxslar. Ular boshlang'ich kurslarga dars bergan.
2. Quyi mudarrislar. Ularning oyligi xarajatlarni qoplamagan.
3. Katta mudarrislar. Ko'p yillar ta'lim berib, madrasa vaqfidan oylik oladigan. Ko'zga ko'ringan mudarrislar.

Buxoroi sharifning a'lo darajali mudarrislariga eshon-qozi ul-quzzot, eshon-raisi kalon, eshon-shayx ul-islom, eshon-oxun, eshon-aబlam va eshon-muftiy askar kabi mansablar kiradi. Bundan tashqari, islomdagi shariat fatvolari sohasidan dars beruvchi muftiylar ham bo'lgan. Ularning soni 22 nafar. Bular a'lo va avsatlar bo'lib, o'rta darajali mudarrislarga bo'linganlar. Bu muftilar o'roqlik mansabiga erishishi mumkin bo'lganki, u eshik oqoboshi amali darajasiga teng kelgan, shu bilan birga sudurlik, sadrlik, shayx ul-islom, naqiblik, miri asadlik mansablariga ham yetishganlar. Bu jamoaga umumiyl imtihondan so'ng, "Hidoyai sharif"ni o'kib tugatishlari bilan amir buyrug'iga ko'ra dahyak (ushr) berilgan. Agar tolibi ilm tahsili ilmda peshrav bo'lsa yoki bundan ham ko'p bilimlarga ega bo'lgan bo'lsa, "Hidoyai sharif"dan o'kitib - imtihon qilib dahyak bergenlar, mansabdor qilganlar. Dahyakdor mansabiga ega bo'lish Buxoroning islomiy qonunlaridan biri bo'lgan.

Muhammad Baljuvoniyning «Ta'rixi Nofeiy» asarida shuday yozadi: Banda 1337 hijriy yili (milodiy 1919 yil) hazrati eshon qozi kalon huzurlarida "Hidoyai sharif"dan "Kitobi nikoh", "Avliyo va akfo" bobini o'qib, dahyak olish uchun imtihon topshirib dahyakka musharraf bo'lgan edim.

Mudarrislarning yana bir jamoasi - "banoraspo'sh" - (banoras kiyinadigan)lar bo'lgan, banoraspo'shlikdan chiqqanlari muftiy mansabiga erishganlar. Ular taxminan 200 nafardirlar. Bularni yana "avsata tadriisy" - o'rta mudarrislar ham deganlar. Yana bir guruh - "asfal tadrisi" (past darajadagi) mudarrislar bo'lib

hisoblanganlar. Ularni “beqasabpo’sh”lar deyishgan. Shuningdek, yana imom, mudarris va shunga o‘xhash vazifadorlar ham bo‘lganki, ularning soni uch yuzdan ko‘proq bo‘lgan. «Ta’rxi Nofeyi» asarida ta’kidlanishicha, o‘sha davrda Buxoro shahrida 400 ta madrasa va 296 ta besh vaqtlik namoz o‘qiladigan masjidlar, shundan 18 ta jome’ masjidi, 80 ta qabriston mavjud. Buxoro shahrida yana 13 ta kitobxona (kutubxona), 96 ta qorixona (qiroatxonalar) va mакtabxonalar faoliyat ko‘rsatgan. Yuqorida aytganimizdek Qozi Burhonuddin, amirzoda Muhammad Sodiq Hashmat, Qozi kalon Sadri Ziyoning shaxsiy kutubxonalarida yuzlab qimmatbaho kitoblar saqlanar edi (Shuningdek, XX asrning boshlarida Buxoroda madrasalar sonini o‘sha davrda yashagan Abdurauf Fitrat va Sadreddin Ayniy 200 ta, Sadr Ziyo 204 ta, Turkiston general-gubernatorligi hisoboti bilan bog‘liq arxiv hujjatlardan birida 1914 yilda Buxoro amirligida 350 ta madrasa faoliyat ko‘rsatayotgani qayd etilgan. O‘zR MDAda saqlanayotgan «Qushbegi» fondidagi hujjatlarga tayanib, Buxoro shahrining o‘zida 160 tadan ortiq madrasa faoliyat yuritganini keltirib o‘tish mumkin).

Xulosa qilib aytganda, Buxoro amirligida XVIII-XX asr boshlarida madaniy hayot, ilm - fan taraqqiyotida ta’lim maskanlari hisoblangan madrasalar yuqori saviyadagi ilm sohiblarini yetishtirish qatorida, milliy o‘zlikni anglash, o‘tmish an’analarini qadrlash, yurt qayg‘usitashvishini his qilishni ham bera bil-gan. Buxislatlar qaysidir ma’noda jasoratlilik, ma’rifatparvarlik, fidoiylik bilan bog‘liqdir. Bu tarixning in-kor etib bo‘lmas haqiqati edi. Muhimi, madrasalar ta’limi-ning bosh g‘oyasi bu axloq ilmini o‘rgatish, go‘zal imonli fazilatlarga ega bo‘lish kabi axloqiy-ta’limiy masalalarni bosh mezon qilib belgilagan.

#### **Foydalanaligan adabiyotlar:**

1. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). Бухоро амирлигига ташки сиёсат ва дипломатиянинг ривожланиши тарихидан. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.
2. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). Бухоро амирликда оила, никоҳ ва мерос хуқуқининг амалда қўлланиши. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
3. Temirov, F. (2023). SADRIDDIN AYNIY IJODIDA TURKISTON TARIXI MASALALARI. *Farg'onan davlat universiteti*, (1), 70-70.
4. Temirov, F. Of the journalistic work of Sadriddin Ayni Concerning Issues of Bukhara history. *Irish Interdisciplinary of Science & Research (IIJSR)* Vol, 6, 12-17.

5. Темиров, Ф. У. (2023). Жизнь И Научно-Творческая Деятельность Садриддина Айни В Трудах Его Современников. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(2), 128-134.
6. Rajabov, O. (2021). “Тарихи Муллозода” асари–Бухоро муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари тарихи бўйича муҳим манба. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8(8).
7. Rajabov, O. (2021). Chor Bakr tarixiy me’moriy majmuasi xususida. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8(8).
8. Rajabov, O. I. (2022). History of fortress of Makhmud Torobi. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 50-54.
9. Rajabov, O. I. (2021). Buxorodagi ayrim muqaddas qadamjo-qal’alar xususida. *Scientific progress*, 1(6), 1162-1168.
10. Rajabov, O. (2020). Qizbibi va Hazrat Bibi manzilgohlari muqaddas qadamjo sifatida. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
11. Ражабов, О. И., & Болтаев, А. Х. (2021). XX аср 40-йиллари Бухорода ташкил қилинган илмий экспедиция. *Ўтмишга назар| Взгляд в прошлое| Look to the past*, 6, 30-36.
12. Iskandarovich, R. O. (2022). Historical Architectural Complex of the Chor (Pers. Four) Bakr Ensemble. *Telematique*, 6886-6890.
13. Болтаев, А. Х. (2018). Бухоро шаҳри 11 дарвозасининг тарихи ва тақдири (ўлкашунос ТФ Гелаҳ тадқиқотларида). Тюркоязычные страны. Республиканский научно-методический и познавательный журнал. *Алмати*, 2, 6-8.
14. Болтаев, А. Х. (2019). Исследование С. Юрнева в мечети Калян. *Вестник археологии, антропологии и этнографии*, (1 (44)), 45-53.
15. Болтаев, А. Х. (2018). Бухоро ўлкашунослиги тарихини ўрганишда СН Юрнев ёзишмаларининг ўрни. *Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети хабарлари*, (1), 5-9.
16. Болтаев, А. Х. (2019). Бухарские коллекционеры. In *Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития* (pp. 142-143).
17. Болтаев, А. (2020). Бухородаги биринчи музей. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
18. Naimov, I. N. (2021). A coverage of the activities of the Mangitic Emirs in the works of Ahmad Donish. *International Journal on Integrated Education*, 4(5), 36-45.
19. Naimov, I. (2023). AHMAD DONISH ILMIY MEROSIDA ISLOM HUQUQI MASALALARI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 71-71.
20. Ismat, N. (2021). “MEYORU-T-TADOYYUN” AS RELIGIOUS AND MORAL SOURCE. *The Light of Islam*, 2021(2), 46-54.
21. Klichev, O. (2020). Scholarships of Emirs of Bukhara. *Oriente moderno*, 100(1), 57-74.
22. Кличев, О. А. (2020). Особенности приема посольств Российской Империи в Бухарском Эмирате во второй половине XIX в. *Россия и мусульманский мир*, (1 (315)), 99-113.
23. Klichev, O. A. (2016). Discourse to the history of political agency in the emirate of Bukhara. *Europaische Fachhochschule*, (8), 14-15.
24. Abdurasulovich, K. O. (2023). ACTIVITY OF EDITORS OF "BUKHORONOMA" NEWSPAPER. *Open Access Repository*, 4(3), 1385-1388.
25. Кличев, О. (2020). БУХОРО АМИРЛИГИ ВА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ЎРТАСИДАГИ ДИПЛОМАТИК МУНОСАБАТЛАРДА СОВФА АЛМАШИНУВ ТАРТИБЛАРИ. *Farg'ona davlat universiteti*, (4), 71-74.

26. Utaeva, F. K., & Zhumaeva, N. A. (2019). The interpretation of the reign of mangit rulers and their personality in periodical press. *Ўтмишига назар журнали*, 22(2).
27. Utayeva, F. (2021). BUXORO TO'QIMACHILIK SANOATI QURILISHI TARIXINING MATBUOTDA YORITILISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (*buxdu. uz*), 7(7).
28. Utayeva, F., & Safarov, B. (2023). История строительства и производственная деятельность Бухарского Прядильного-текстильного комбината. *Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnalı*, (1), 303-307.
29. Бобожонова, Ф. X. (2021). БУХОРО МАДРАСАЛАРИ МАЪНАВИЯТ ДУРДОНАСИ. *Scientific progress*, 2(1), 362-366.
30. Бобожонова, Ф. X. (2022). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ МАСАЛАЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(NUU Conference 2), 1024-1028.
31. Bobojonova, F. (2021). Бухоро амирлигидаги янги усул мактабларининг фаолияти. *Центр научных публикаций* (*buxdu. uz*), 8(8).
32. Beshimov, M. (2022). Abdulvahid Munzim-enlightened poet, state and public figure. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 52-56.
33. BESHIMOV, M. (2022). Amir Said Alimkhan and Young Bukhara residents. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 78-83.
34. Beshimov, M. (2023). ISSUES OF AGGRESSION OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE WORKS OF MIRZO SOMI. *Modern Science and Research*, 2(7), 316-321.
35. Beshimov, M. (2021). Mang'itlar davrida Buxoroda madaniy hayot. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (*buxdu. uz*), 7(7).
36. Beshimov, M. (2023). THE HISTORY OF BUKHARA OF THE DOCUMENTS OF THE QUSHBEGI ARCHIVE IMPORTANCE IN LEARNING. *Modern Science and Research*, 2(7), 305-309.
37. SHAROPOV, D. (2022). ПРАВИТЕЛЬ МАНГЫТОВ ЭМИР ХАЙДАР. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 101-104.
38. Ravshanovich, S. D. (2022). CURRENTLY, THE PLACE OF AFGHANISTAN IN THE COMMUNICATION OF CENTRAL AND SOUTH ASIA. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 55-59.
39. Sharopov, D. (2021). ABDURAZZOQ SAMARQANDIYNING "MATLAI SA'DAYN VA MAJMAI BAHRAYN" ASARINING O'RGANILISH TARIXI. *Scientific progress*, 2(1), 358-361.
40. Ravshan o'g'li, S. D. (2023). O 'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYODAGI TASHQI SIYOSATI. ISTIQBOLLI REJALAR, YAQIN KELAJAKDA HAL QILINISHI KERAK BO 'LGAN MASALALAR. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(2), 69-75.
41. Шаропов, Д. Р. (2023). MARKAZIY VA JANUBIY OSIYO MINTAQASIDA TOLIBON HUKUMATINING TUTGAN O 'RNI: Sharopov Dilshod Ravshan o 'g 'li, BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi o 'qituvchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (7), 44-47.
42. Nosirov, S. (2022). Sadreddin Ayniy asarlari buxoro inqilobini tarixini o 'rganuvchi manba sifatida. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (*buxdu. uz*), 26(26).
43. Sherzod, N. (2023). HISTORIAN SCIENTIST POLAT SOLIYEV IS A RESEARCHER OF THE HISTORY OF BUKHARA. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 3(3), 32-38.
44. Sherzod O'ktam o'g, N., & Komilovich, B. M. (2023). Illumination of socio-economic issues in Turkestan in the works of Professor Polat Soliyev. *Telematique*, 22(01), 1278-1282.

45. Nosirov, S. (2023). TARIXCHI OLIM PO ‘LAT SOLIEV IJODIDA TURKISTON TARIXI MASALALARINING YORITILISHI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 29(29).
46. Qudratov, S. (2021). XIX аср охири-XX аср бошларида Бухоро амирлигидаги бозорлар фаолияти. *центр Научных публикаций (buxdu. uz)*, 7(7).
47. BOLTAEV, B. (2022). The trend of creation and development of the museum-laboratory of Bukhara state university. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(3), 69-73.
48. Аҳмадалиев, К., & Болтаев, Б. (2024). МАРКАЗИЙ СУФДНИНГ МУДОФАА ИНШООЛАРИ. *Наука и технология в современном мире*, 3(3), 30-31.
49. Umarov B. NA KISLYAKOV TADQIQOTLARIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI FEODAL VA QISHLOQ XO‘JALIGI MUNOSABATLARINING YORITILISHI // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*). – 2021. – Т. 6. – №. 6.
50. Umarov, B. B. (2021). FAMILY AND MARRIAGE RELATIONS IN NA KISLYAKOV'S RESEARCH. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 127-135.
51. Umarov, B. (2020). БУЮК ОЛИМ НА КИСЛЯКОВНИНГ ПЕДАГОГЛИК ФАОЛИЯТИГА НАЗАР. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 1(1).